


“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati xodimlarini koronavirus infektsiyasiga qarshi emlashning ikkinchi bosqichi o'tkazildi.

// 06 August 2021 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/vakcinaciya-2>



“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati xodimlarini koronavirus infektsiyasiga qarshi emlashning ikkinchi bosqichi o'tkazildi. Tashkilot xodimlarini koronavirus infektsiyasiga qarshi emlashda ZF-UZ-VAC 2001 nomli Xitoy-O'zbek vaktsinasidan foydalanildi.



Mamlakatimizda koronavirusga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlardan biri fuqarolarni koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash tadbirlari hisoblanadi. Bu jarayonda mutaxassislar emlashning afzalliklari, uning inson salomatligi uchun ahamiyati borasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.





Eslatib o'tamiz, 1 mart kuni ZF-UZ-VAC 2001 nomli koronavirusning yangi tipiga qarshi rekombinant (CHO cell) Xitoy-O'zbek vaktsinasi tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilgan edi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati